



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, aprel.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TO'LOV INFRATUZILMASINI SHAKILLANISHI VA RIVOJLANISH DINAMIKASI: TARIXIY, ILMIY HAMDA BOZOR TAHLILI	32
A.A. Akbarov, X.R. Aliyev	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL ETISHNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	42
Karayev Payzillaxon Yusufxonovich	
TURIZM KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY AKTIVLARINING ROLI.....	47
Ruzibayeva Nargiza Xakimovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOLOGIK SOLIQLAR VA TO'LOVLAR TIZIMI TAHLILI	53
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich, Abdolnizayov Murodbek Madiyarovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMINI MOLIYALASHTIRISHDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ISHLAR VA TIZIMGA KIRITILAYOTGAN O'ZGARISHLAR.....	59
Kasimova Gulyar Axmatovna, Aripova Kamola Botir qizi	
MINTAQAVIY RIVOJLANISHNI KOMPLEKS BAHOLASH VA PROGNOZLASHDA EKONOMETRIK VA SUN'IY INTELLEKT USULLARINING INTEGRATSIYASI	64
Namazov Gafur Shokulovich	
BALIQCILIK SUBYEKTLARINI RIVOJLANTIRISHDA DUNYO MAMLAKATLARINING O'RNI	69
Beglayev Uchqun Xurramovich	
KAMBAG'ALLIK FENOMENINING IJTIMOIIY-IQTISODIY VA NAZARIY-KONTSEPTUAL ASOSLARI	75
Musulmonova Shahlo Nasriddinova	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA HISOB VA BIZNES JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	81
Artikova R.A.	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILIYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	88
Ibragimov G'anijon G'ayratovich	



AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA DIVIDEND TO'LASH QOBILIYATI KOEFFITSIYENTINING MAQBUL ORALIG'INI ANIQLASH VA UNING INVESTITSION SAMARADORLIKKA TA'SIRI

Ibragimov G'anjon G'ayratovich

Innovatsion menejment kafedrası mustaqil izlanuvchisi
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatining investitsion samaradorlikka ta'sirini baholashga bag'ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi dividend to'lash qobiliyati koeffitsiyentining (KDT) optimal darajasini aniqlash hamda uning aksiyalar rentabelligi, kompaniya qiymati va umumiy investitsion jozibadorlikka ta'sirini ilmiy asoslashdan iborat. Tadqiqot doirasida 2020–2024 yillar oralig'ida aksiyadorlik jamiyatlarining moliyaviy va bozor ko'rsatkichlari asosida ekonometrik tahlil amalga oshirildi. Tahlil jarayonida oddiy eng kichik kvadratlar usuli (OLS) qo'llanilib, KDT hamda investitsion samaradorlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik nolinear model asosida baholandi. Natijalar dividend siyosati va investitsion samaradorlik o'rtasida teskari U-shaklli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Empirik tahlillar asosida dividend to'lash qobiliyati koeffitsiyentining maqbul oraliq chegarasi ($0,4 \leq KDT \leq 0,7$) aniqlanib, aynan shu intervalda kompaniyalarning moliyaviy barqarorligi, aksiyalar rentabelligi va bozor qiymati maksimal darajada shakllanishi isbotlandi. Tadqiqot natijalari dividend siyosatini optimallashtirish orqali aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish hamda ularning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Dividend siyosati, dividend to'lash qobiliyati koeffitsiyenti, KDT, investitsion samaradorlik, aksiyalar rentabelligi, Tobin's Q, rentabellik (ROE), aksiyadorlik jamiyatlari, ekonometrik tahlil, OLS regressiya, korporativ boshqaruv, ESG ko'rsatkichlari, moliyaviy barqarorlik.

Abstract. This study is devoted to assessing the impact of dividend policy on investment efficiency in joint-stock companies. The main objective of the study is to determine the optimal level of the dividend payout ratio (DPR) and scientifically substantiate its impact on the profitability of shares, company value and overall investment attractiveness. As part of the study, an econometric analysis was carried out based on the financial and market indicators of joint-stock companies for the period 2020–2024. The analysis used the ordinary least squares method (OLS) to assess the relationship between DPR and investment efficiency indicators based on a nonlinear model. The results showed that there is an inverted U-shaped relationship between dividend policy and investment efficiency. Based on empirical analysis, an optimal range of the dividend payout ratio ($0.4 \leq DPR \leq 0.7$) was determined, and it was proven that it is in this range that the financial stability, profitability of shares and market value of companies are formed to the maximum. The results of the study show that optimizing dividend policy can increase the investment attractiveness of joint-stock companies and ensure their long-term sustainable development.

Key words: Dividend policy, dividend payout ratio, DPR, investment efficiency, stock return, Tobin's Q, return on equity (ROE), joint-stock companies, econometric analysis, OLS regression, corporate governance, ESG indicators, financial stability.

Аннотация. Данное исследование посвящено оценке влияния дивидендной политики на эффективность инвестиций в акционерных обществах. Основная цель исследования – определить оптимальный уровень коэффициента выплаты дивидендов (КДР) и научно обосновать его влияние на рентабельность акций, стоимость компании и общую инвестиционную привлекательность. В рамках исследования был проведен эконометрический анализ на основе финансовых и рыночных показателей акционерных обществ за период 2020–2024 годов. Для оценки взаимосвязи между КДР и показателями эффективности инвестиций на основе нелинейной модели использовался метод наименьших квадратов (МНК). Результаты показали наличие U-образной зависимости



между дивидендной политикой и эффективностью инвестиций. На основе эмпирического анализа был определен оптимальный диапазон коэффициента выплаты дивидендов ($0,4 \leq \text{КДР} \leq 0,7$), и доказано, что именно в этом диапазоне формируется максимальная финансовая стабильность, рентабельность акций и рыночная стоимость компаний. Результаты исследования показывают, что оптимизация дивидендной политики может повысить инвестиционную привлекательность акционерных обществ и обеспечить их долгосрочное устойчивое развитие.

Ключевые слова: Дивидендная политика, коэффициент выплаты дивидендов, DTR, эффективность инвестиций, доходность акций, коэффициент Тобина Q, рентабельность собственного капитала (ROE), акционерные общества, эконометрический анализ, регрессия методом наименьших квадратов, корпоративное управление, показатели ESG, финансовая стабильность.

KIRISH

Zamonaviy moliyaviy boshqaruv tizimida aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini belgilovchi asosiy omillardan biri dividend siyosati hisoblanadi. Dividendlar investorlar uchun kompaniyaning moliyaviy barqarorligi, foydaliligi va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida muhim signal vazifasini bajaradi. Shu bois dividend siyosatini ilmiy asosda shakllantirish aksiyadorlik jamiyatlari kapital qiymatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda moliyaviy nazariya va amaliyotda dividend siyosatining optimal darajasini aniqlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, signal nazariyasi va agentlik nazariyasiga ko'ra, dividendlar nafaqat daromad taqsimlash vositasi, balki investorlar uchun axborot signali sifatida ham qaraladi. Shu nuqtayi nazardan, dividend to'lash qobiliyatining optimal darajasini aniqlash investitsiya samaradorligini oshirishda muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalariga investitsiya qilish samaradorligining yuqori darajasini ta'minlash maqsadida dividendni to'lash qobiliyati koeffitsiyentining maqbul oraliq chegarasi ($0,4 \leq \text{KDT} \leq 0,7$) asoslab berildi. Ushbu oraliq kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va investorlar manfaatlarini o'rtasidagi optimal muvozanatni ta'minlaydi.

Tadqiqotning maqsadi – dividend to'lash qobiliyati koeffitsiyentining optimal darajasini aniqlash va uning aksiyalar investitsion samaradorligiga ta'sirini ilmiy asoslashdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatining investitsion samaradorlikka ta'sirini chuqur o'rganish maqsadida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning empirik qismi aksiyadorlik jamiyatlarining 2020–2024 yillar oralig'idagi moliyaviy va bozor ko'rsatkichlari asosida amalga oshirildi. Ushbu davr tanlanishi iqtisodiy o'zgarishlar, investitsion faollik va korporativ boshqaruv transformatsiyalarini qamrab olishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot jarayonida ekonometrik tahlil asosiy usul sifatida qo'llanilib, dividend to'lash qobiliyati koeffitsiyenti (KDT) hamda investitsion samaradorlik ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlik baholandi. Investitsion samaradorlikni ifodalovchi asosiy indikatorlar sifatida rentabellik (ROE), kompaniyaning bozor qiymatini aks ettiruvchi Tobin's Q ko'rsatkichi hamda aksiyalar rentabelligi (stock return) tanlab olindi. Ushbu ko'rsatkichlar aksiyadorlik jamiyatining moliyaviy natijalari va investorlar uchun jozibadorligini kompleks baholash imkonini beradi.

Ekonometrik baholash jarayonida oddiy eng kichik kvadratlar usuli (OLS regressiya modeli) qo'llanildi. Modelda investitsion samaradorlik bog'liq o'zgaruvchi sifatida olinib, unga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida dividend to'lash qobiliyati koeffitsiyenti (KDT), ESG ko'rsatkichlari, korporativ boshqaruv darajasi (CG) hamda axborot oshkoraligi (Disclosure) kiritildi. Ushbu model investitsiya samaradorligining ko'p omilli xarakterini hisobga olgan holda, har bir omilning ta'sir darajasini miqdoriy jihatdan baholash imkonini berdi.

Bundan tashqari, tadqiqotda interval tahlil usuli qo'llanilib, KDT ko'rsatkichining turli darajalarda investitsion natijalarga ta'siri alohida baholandi. Xususan, $\text{KDT} < 0,4$ bo'lgan holatlar past dividend siyosati sifatida talqin qilinib, bunda kompaniya foydasining asosiy qismi reinvestitsiyaga yo'naltirilishi va investorlar daromadining nisbatan pastligi kuzatiladi. $0,4 \leq \text{KDT} \leq 0,7$ oralig'i optimal zona sifatida ajratilib, bu holatda dividend to'lovlari va reinvestitsiya o'rtasida muvozanat ta'minlanishi asoslab berildi. $\text{KDT} > 0,7$ bo'lgan holatlar esa ortiqcha dividend siyosati sifatida baholanib, bunda kompaniyaning ichki rivojlanish imkoniyatlari cheklanishi mumkinligi aniqlanadi.

Shu tariqa, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar majmui dividend siyosatining investitsion samaradorlikka ta'sirini kompleks va chuqur tahlil qilish imkonini berib, KDT ko'rsatkichining optimal darajasini ilmiy asoslashga xizmat qildi.



TAHLIL VA NATIJALAR

O'tkazilgan empirik tahlillar dividend to'lash qobiliyati koeffitsiyenti (KDT) va investitsiya samaradorligi o'rtasida aniq nolinear (teskari U-shaklli) bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. Ya'ni, dividend siyosati juda past yoki juda yuqori bo'lgan holatlarda investitsion samaradorlik pasayadi, optimal darajada esa maksimal natijaga erishiladi. Ushbu natija ekonometrik modelda KDT va uning kvadratik komponenti (KDT^2)ning statistik ahamiyatli bo'lishi orqali ham tasdiqlandi, bu esa dividend siyosatining optimal chegarasini aniqlash imkonini berdi.

Jadval 1. KDT darajasi bo'yicha investitsion samaradorlik ko'rsatkichlari

KDT intervali	ROE (%)	Tobin's Q	Aksiyalar rentabelligi (%)	Likvidlik	Investor qiziqishi
$KDT < 0,4$	10–12	0,85–0,95	8–12	Past	Past
$0,4 \leq KDT \leq 0,7$	18–22	1,3–1,5	20–25	Yuqori	Yuqori
$KDT > 0,7$	12–14	1,0–1,1	10–15	O'rta	Pasayuvchi

Past darajadagi dividend siyosati ($KDT < 0,4$) sharoitida kompaniya foydasining asosiy qismi ichki reinvestitsiyaga yo'naltiriladi. Bir qarashda bu holat kompaniyaning uzoq muddatli rivojlanishi uchun ijobiy ko'rinishi mumkin, biroq empirik natijalar bunday yondashuv investorlar nuqtayi nazaridan yetarli darajada jozibador emasligini ko'rsatdi. Xususan, dividendlarning past darajada to'lanishi investorlar uchun daromadning noaniqligini oshiradi va bu ularning aksiyalarga bo'lgan qiziqishini kamaytiradi. Natijada aksiyalar bilan savdo hajmi qisqaradi, ya'ni likvidlik pasayadi, bozor bahosi esa fundamental qiymatdan past shakllanadi.

Jadval 2. Regressiya natijalari (KDT va samaradorlik bog'liqligi)

O'zgaruvchi	Koeffitsiyent (β)	t-statistika	Ahamiyatlilik
KDT	+0.42	5.87	***
KDT^2	-0.31	-4.92	***
CGI	+0.28	3.45	**
ESG	+0.21	2.98	**
R^2	0.71	—	—

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, ushbu intervalda kompaniyalarning o'rtacha ROE ko'rsatkichi 10–12 foiz atrofida bo'lib, Tobin's Q ko'rsatkichi ko'pincha 1 dan past darajada shakllanadi. Bu esa bozor tomonidan kompaniya qiymatining yetarli baholanmayotganini anglatadi.

Eng muhim natijalar dividend siyosatining optimal oraliq darajasida ($0,4 \leq KDT \leq 0,7$) kuzatildi. Ushbu interval empirik jihatdan eng samarali zona sifatida aniqlanib, unda dividend to'lovlari va reinvestitsiya o'rtasida muvozanat ta'minlanishi isbotlandi. Mazkur holatda kompaniya bir vaqtning o'zida investorlar uchun barqaror daromadni ta'minlaydi va o'zining ichki rivojlanish salohiyatini ham saqlab qoladi. Natijada investorlar ishonchi ortadi, aksiyalar bozorida talab kuchayadi va kapital qiymati sezilarli darajada oshadi.

Statistik natijalar ushbu xulosani yanada mustahkamlaydi. Xususan, optimal intervalda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlarida rentabellik darajasi (ROE) o'rtacha 18–22 foizni tashkil etib, bu boshqa guruhlariga nisbatan ancha yuqori ekanligi aniqlandi. Tobin's Q ko'rsatkichi 1,3 dan yuqori bo'lib, bu kompaniya bozor qiymatining uning balans qiymatidan yuqori ekanligini va investorlar tomonidan ijobiy baholanayotganini anglatadi. Bundan tashqari, aksiyalar rentabelligi ham 20–25 foizga yuqori bo'lib, bu kapital bozoridagi investorlar uchun yuqori daromadlilikni ta'minlaydi.

Jadval 3. Optimal zona va maksimal samaradorlik

Ko'rsatkich	Qiymat
Optimal KDT oralig'i	0,4 – 0,7
Maksimal ROE	22%
Maksimal Tobin's Q	1,5
Maksimal aksiyalar rentabelligi	25%
Investitsion jozibadorlik	Eng yuqori



Mazkur natijalarni chuqurroq tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, aynan shu oraliqda dividend siyosati signal nazariyasi nuqtayi nazaridan eng samarali ishlaydi. Ya'ni, kompaniya tomonidan barqaror, lekin ortiqcha bo'lmagan dividend to'lovlari investorlar uchun kompaniyaning moliyaviy barqarorligi va istiqbollari haqida ijobiy signal beradi. Shu bilan birga, agentlik nazariyasiga ko'ra, dividendlarning mavjudligi menejerlar tomonidan ortiqcha mablag'lardan samarasiz foydalanish ehtimolini kamaytiradi va bu orqali boshqaruv samaradorligini oshiradi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, dividend siyosatining optimal darajasi kompaniyaning investitsion samaradorligi va kapital qiymatini maksimal darajada oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, $0,4 \leq KDT \leq 0,7$ oralig'i nafaqat moliyaviy muvozanatni ta'minlaydi, balki investorlar ishonchini mustahkamlovchi va bozor bahosini oshiruvchi strategik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Olingan natijalar dividend siyosati bo'yicha shakllangan klassik moliyaviy nazariyalar bilan to'liq mos kelishini ko'rsatadi. Xususan, signal nazariyasi nuqtayi nazaridan qaranganda, optimal dividend siyosati investorlar uchun kompaniyaning moliyaviy barqarorligi, foydalilik darajasi va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari haqida ijobiy signal vazifasini bajaradi. Ya'ni, dividendlarning me'yoriy darajada to'lanishi bozor ishtirokchilari tomonidan kompaniya faoliyatining samarali ekanligi sifatida qabul qilinadi va bu aksiyalar narxining oshishiga hamda investitsion jozibadorlikning kuchayishiga olib keladi.

Shu bilan birga, agentlik nazariyasi nuqtayi nazaridan dividend siyosati menejerlar va aksiyadorlar o'rtasidagi manfaatlar qarama-qarshiligini kamaytiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Xususan, dividend to'lovlari kompaniya ixtiyorida qoladigan erkin pul oqimlarini qisqartiradi va menejerlarning ushbu mablag'larni samarasiz loyihalarga yo'naltirish ehtimolini kamaytiradi. Natijada resurslardan foydalanish samaradorligi oshadi va investorlar ishonchi mustahkamlanadi.

Mazkur tadqiqot doirasida taklif etilgan dividend to'lash qobiliyati koeffitsiyentining optimal oraliq chegarasi ($0,4 \leq KDT \leq 0,7$) bir qator muhim iqtisodiy afzalliklarni ta'minlashi ilmiy asoslab berildi. Ushbu oraliqda kompaniya bir vaqtning o'zida investorlar uchun barqaror daromadni ta'minlaydi va o'zining ichki rivojlanishi uchun yetarli moliyaviy resurslarni saqlab qoladi. Bu esa dividendlar va reinvestitsiya o'rtasida optimal muvozanatni yuzaga keltiradi. Natijada kompaniyaning kapital qiymati maksimal darajada shakllanadi, bozor tomonidan ijobiy baholanadi va uzoq muddatli o'sish istiqbollari mustahkamlanadi. Bundan tashqari, mazkur oraliq risk va rentabellik o'rtasidagi optimal nisbatni ta'minlab, investorlar uchun maqbul investitsiya sharoitlarini yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot natijasida dividend to'lash qobiliyati koeffitsiyentining optimal oraliq chegarasi ($0,4 \leq KDT \leq 0,7$) ilmiy va empirik jihatdan asoslab berildi. O'tkazilgan ekonometrik tahlillar ushbu interval aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatida eng samarali moliyaviy muvozanat nuqtasini ifodalashini ko'rsatdi. Ya'ni, aynan shu oraliqda dividend to'lovlari va reinvestitsiya o'rtasida optimal nisbat ta'minlanib, kompaniyaning qisqa muddatli daromadliliigi va uzoq muddatli rivojlanish imkoniyatlari uyg'unlashadi.

Aniqlanishicha, mazkur optimal interval aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini sezilarli darajada oshiradi. Bu esa investorlar uchun barqaror va prognoz qilinadigan daromad oqimini ta'minlash bilan birga, kompaniyaning bozor qiymatini (Tobin's Q) maksimal darajada shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ushbu darajada dividend siyosatini yuritish kompaniya ichki moliyaviy resurslarining yetarli darajada saqlanishini ta'minlab, strategik investitsiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Mazkur ilmiy yangilikning amaliy ahamiyati shundaki, u aksiyadorlik jamiyatlarida dividend siyosatini shakllantirishda aniq me'yoriy ko'rsatkich sifatida qo'llanilishi mumkin. Xususan, ushbu interval investitsion qarorlar qabul qilishda muhim indikator bo'lib xizmat qiladi hamda investorlar uchun kompaniya moliyaviy barqarorligini baholash mezonini sifatida foydalanilishi mumkin. Bundan tashqari, taklif etilgan yondashuv korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish, resurslardan samarali foydalanishni ta'minlash va kapital qiymatini oshirishga xizmat qiluvchi strategik instrument sifatida namoyon bo'ladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari dividend siyosatini optimallashtirish orqali aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish va ularning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash mumkinligini ilmiy asosda isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Modigliani F., Miller M. Dividend Policy, Growth, and the Valuation of Shares // Journal of Business. – 1961. – Vol. 34, No. 4. – P. 411–433.
2. Jensen M., Meckling W. Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure // Journal of Financial Economics. – 1976. – Vol. 3. – P. 305–360.
3. Bhattacharya S. Imperfect Information, Dividend Policy, and the "Bird in the Hand" Fallacy // Bell Journal of Economics. – 1979. – Vol. 10. – P. 259–270.



4. Miller M., Rock K. Dividend Policy under Asymmetric Information // Journal of Finance. – 1985. – Vol. 40. – P. 1031–1051.
5. La Porta R., Lopez-de-Silanes F., Shleifer A., Vishny R. Agency Problems and Dividend Policies around the World // Journal of Finance. – 2000. – Vol. 55. – P. 1–33.
6. Damodaran A. Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset. – New York: Wiley, 2012.
7. Brealey R., Myers S., Allen F. Principles of Corporate Finance. – New York: McGraw-Hill, 2020.
8. OECD Principles of Corporate Governance. – Paris: OECD Publishing, 2015.
9. World Bank. World Development Report 2023: Investing in Development. – Washington DC: World Bank, 2023.
10. UNCTAD. World Investment Report 2024. – Geneva: United Nations, 2024.
11. Black B., Jang H., Kim W. Does Corporate Governance Affect Firm Value? Evidence from Korea // Journal of Law, Economics, and Organization. – 2006. – Vol. 22. – P. 366–413.
12. Fama E., French K. Disappearing Dividends: Changing Firm Characteristics or Lower Propensity to Pay? // Journal of Financial Economics. – 2001. – Vol. 60. – P. 3–43.
13. Ўзбекистон Республикасининг “Акциядорлик жамиятлари ва акциядорлар ҳуқуқларини ҳимоя қилиш тўғрисида”ги Қонуни. – Тошкент, 2014.
14. Ўзбекистон Республикаси Президентининг инвестиция сиёсати ва корпоратив бошқарувни ривожлантиришга оид фармонлари. – Тошкент, 2020–2024.
15. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари. – Тошкент, 2024.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>